

O'ZBEKISTONDA BRM DOIRASIDAGI SIYOSAT: KAMBAG'ALLIK, TENGSIZLIK VA INSTITUTSIONAL ISLOHOTLAR

Xaydarov Diyorbek Burxon o'g'li

*Jahon iqtisodiyoti va diplomatiyasi universiteti Xalqaro munosabatlar fakulteti
bosqich talabasi Email: xaydarovd923@gmail.com*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada O'zbekistonda Barqaror rivojlanish maqsadlari (BRM) doirasida kambag'allikni qisqartirish, ijtimoiy tengsizlikni kamaytirish hamda institutsional boshqaruv samaradorligini oshirishga qaratilgan islohotlar tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida kambag'allik darajasi, daromadlar tengsizligi, ijtimoiy himoya tizimi va huquqiy institutlar faoliyatining o'zaro bog'liqligi statistik hamda qiyosiy yondashuv asosida o'rganildi. Maqolada 2025-yil yakunlari bo'yicha kambag'allik darajasining 5,8 foizgacha pasayishi, "O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida amalga oshirilayotgan raqamli va institutsional islohotlar, jumladan "Yagona ijtimoiy reyestr", "Raqamli sud" va manzilli ijtimoiy himoya mexanizmlarining ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, xalqaro reyting va indekslar asosida mavjud muammolar tahlil qilinib, hududiy tengsizlik, huquqiy institutlar ochiqligi hamda sifatli bandlikni ta'minlash bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqilgan. Tadqiqot natijalari O'zbekistonda barqaror rivojlanish siyosatining samaradorligi kuchli va shaffof institutlarni shakllantirish bilan chambarchas bog'liq ekanligini ko'rsatadi.*

Kalit so'zlar: *Barqaror rivojlanish maqsadlari (BRM), kambag'allik, ijtimoiy tengsizlik, institutsional islohotlar, raqamli boshqaruv, ijtimoiy himoya, Gini koeffitsiyenti, Rule of Law Index, kambag'allikni qisqartirish, O'zbekiston – 2030 strategiyasi, huquqiy institutlar, barqaror rivojlanish.*

ПОЛИТИКА В РАМКАХ ЦУР В УЗБЕКИСТАНЕ: БЕДНОСТЬ, НЕРАВЕНСТВО И ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ РЕФОРМЫ

Аннотация: *В данной статье анализируются реформы, реализуемые в Узбекистане в рамках Целей устойчивого развития (ЦУР), направленные на сокращение бедности, снижение социального неравенства и повышение эффективности институционального управления. В ходе исследования взаимосвязь уровня бедности, неравенства доходов, системы социальной защиты и деятельности правовых институтов изучалась на основе статистического и сравнительного подходов. В статье освещаются снижение уровня бедности до 5,8 процента по итогам 2025 года, цифровые и институциональные реформы, реализуемые в рамках стратегии «Узбекистан – 2030», в частности значение механизмов «Единого социального реестра», «Цифрового суда» и адресной социальной защиты. Кроме того, на основе международных рейтингов и индексов проанализированы существующие проблемы и разработаны практические*

предложения по сокращению регионального неравенства, повышению открытости правовых институтов и обеспечению качественной занятости. Результаты исследования показывают, что эффективность политики устойчивого развития в Узбекистане тесно связана с формированием сильных и прозрачных институтов.

Ключевые слова: *Цели устойчивого развития (ЦУР), бедность, социальное неравенство, институциональные реформы, цифровое управление, социальная защита, коэффициент Джини, Rule of Law Index, сокращение бедности, стратегия «Узбекистан – 2030», правовые институты, устойчивое развитие.*

SDG-RELATED POLICIES IN UZBEKISTAN: POVERTY, INEQUALITY, AND INSTITUTIONAL REFORMS

Abstract: *This article analyzes the reforms implemented in Uzbekistan within the framework of the Sustainable Development Goals (SDGs), aimed at reducing poverty, decreasing social inequality, and improving the efficiency of institutional governance. The study examines the interrelation between poverty levels, income inequality, the social protection system, and the functioning of legal institutions through statistical and comparative approaches. The article highlights the reduction of the poverty rate to 5.8 percent by the end of 2025, as well as the digital and institutional reforms carried out under the “Uzbekistan – 2030” Strategy, including the importance of the “Unified Social Registry,” “Digital Court,” and targeted social protection mechanisms. Furthermore, existing challenges are analyzed based on international rankings and indices, and practical recommendations are developed to reduce regional inequality, enhance the transparency of legal institutions, and ensure quality employment. The findings demonstrate that the effectiveness of sustainable development policy in Uzbekistan is closely linked to the establishment of strong and transparent institutions.*

Keywords: *Sustainable Development Goals (SDGs), poverty, social inequality, institutional reforms, digital governance, social protection, Gini coefficient, Rule of Law Index, poverty reduction, Uzbekistan – 2030 Strategy, legal institutions, sustainable development.*

KIRISH

XXI asrda kambag'allik, ijtimoiy tengsizlik va institutsional zaiflik global rivojlanishning asosiy muammolaridan biri bo'lib qolmoqda. Ayniqsa, rivojlanayotgan davlatlarda iqtisodiy o'sishning barcha qatlamlarga teng taqsimlanmasligi, ijtimoiy himoya tizimlarining yetarli darajada shakllanmaganligi hamda boshqaruvdagi institutsional muammolar barqaror rivojlanishga jiddiy to'siq bo'lmoqda. Shu sababli Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan 2015-yilda qabul qilingan Barqaror rivojlanish maqsadlari (BRM) konsepsiyasi davlatlarning uzoq muddatli rivojlanish strategiyasining muhim qismiga aylandi.

Barqaror rivojlanish maqsadlari doirasida kambag'allikka barham berish (BRM 1), tengsizliklarni kamaytirish (BRM 10) hamda kuchli institutlarni shakllantirish (BRM 16) o'zaro chambarchas bog'liq yo'nalishlar hisoblanadi. Chunki kambag'allikni qisqartirish faqat iqtisodiy o'sish orqali emas, balki adolatli taqsimot, shaffof boshqaruv, huquqiy tenglik va samarali davlat institutlari orqali amalga oshiriladi.

Mazkur maqolaning asosiy maqsadi - O'zbekistonda BRM siyosati doirasida kambag'allik va tengsizlikni kamaytirish bo'yicha amalga oshirilayotgan institutsional islohotlarni tahlil qilish, mavjud muammolarni aniqlash hamda amaliy takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot davomida tahliliy, statistik va qiyosiy metodlardan foydalanildi. Maqolada BMT, Jahon banki, Sustainable Development Solutions Network (SDSN), World Justice Project hamda O'zbekiston Respublikasi rasmiy statistik ma'lumotlari asosida ilmiy tahlil olib borildi.

So'nggi yillarda O'zbekistonda ham mazkur yo'nalishlarda keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, "O'zbekiston - 2030" strategiyasi, kambag'allikni qisqartirish dasturlari, "Temir daftar", "Ayollar daftari", "Yoshlar daftari", "Yagona ijtimoiy reyestr", "Raqamli sud", "Raqamli komplayens" kabi tashabbuslar davlatning BRM maqsadlariga erishishga qaratilgan institutsional siyosatini aks ettiradi.

2025-yilgi Sustainable Development Report ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekiston 167 davlat orasida 62-o'rinni egallab, 73,1 ball to'plagan hamda BRM bo'yicha eng tez rivojlanayotgan davlatlardan biri sifatida qayd etilgan.¹⁴ Bu mamlakatda olib borilayotgan institutsional va ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning xalqaro miqyosda ham ijobiy baholanayotganini ko'rsatadi.

O'zbekistonda kambag'allik va tengsizlik holati

Kambag'allik masalasi uzoq yillar davomida nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy va institutsional muammo sifatida ham namoyon bo'lib kelgan. So'nggi yillarda O'zbekistonda ushbu muammoni tizimli ravishda kamaytirishga qaratilgan davlat siyosati shakllantirildi.

Milliy statistika qo'mitasi hamda Jahon banki bilan hamkorlikda o'tkazilgan kuzatuvlarga ko'ra, 2025-yil yakunlari bo'yicha O'zbekistonda kambag'allik darajasi 5,8 foizni tashkil etdi.¹⁵ Bu ko'rsatkich 2024-yildagi 8,9 foizga nisbatan sezilarli darajada kamaygan. Mazkur natija orqali 2025-yilda 302 ming oila kambag'allik holatidan chiqarilgan.

Tahlillarga ko'ra, kambag'allikning pasayishi shaharlarda tezroq kuzatilgan. 2025-yilda shaharlardagi kambag'allik darajasi 5,2 foizni, qishloq hududlarida esa 6,4 foizni tashkil etgan.¹⁶ Bu esa hududiy tafovutlar hali ham dolzarbligicha qolayotganini ko'rsatadi.

¹⁴ <https://gov.uz/en/imv/news/view/63748>

¹⁵ (CERR, 2025) <https://dunyo.info/en/ekonomika/ceir-predstavil-analiz-urovnya-bednosti-i-dohodov-naseleniya-v-uzbekistane>

¹⁶ https://t.me/Rasmiy_xabarlar_Official/55603

Aholi jon boshiga o'rtacha oylik daromad 2,6 million so'mni tashkil etgan bo'lib, uning 72,6 foizi mehnat faoliyatidan olingan daromadlarga to'g'ri keladi.(CERR,2025) Bu esa aholining asosiy qismi hali ham mehnat bozoridagi holatga yuqori darajada bog'liq ekanini anglatadi.

Daromadlar tengsizligi bo'yicha ham ma'lum ijobiy o'zgarishlar kuzatilmoqda. 2024-yilda Gini koeffitsiyenti 0,35 bo'lgan bo'lsa, 2025-yilda 0,33 gacha pasaydi. Bu daromadlar taqsimoti nisbatan tenglashayotganini ko'rsatadi.

Ijobiy dinamika aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlari o'rtasida daromadlarning tezroq o'sishi bilan bog'liqdir. Hisob-kitoblarga ko'ra, eng kam ta'minlangan guruhlar daromadi 26 foizga, eng boy qatlam daromadi esa 13 foizga oshdi.¹⁷ Bu raqamlar kambag'allarning daromadi boylarnikiga qaraganda ikki baravar tezroq o'sayotganini ko'rsatadi.

1-jadval. Qoraqalpog'iston Respublikasining 2024-2025 -yillardagi asosiy ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlari dinamikasi

Ko'rsatkich	2024	2025	O'zgarish
Kambag'allik darajasi	10.8%	6.6%	-4.2%
Ishsizlik darajasi	5.8%	5.0%	-0.8%
Yalpi hududiy mahsulot	-	54.1 trln so'm	-
Eksport hajmi	-	435.2 mln dollar	-

Manba: Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi (CERR) hamda hududiy statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida tayyorlandi. Dunyo IA hisoboti

1-jadval tahlili birgina Qoraqalpog'iston Respublikasi misolida hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish borasidagi islohotlarning ijobiy natijalarini ko'rsatib beradi. Xususan, "mahallabay" ishlash tizimining samaradorligi natijasida kambag'allik darajasi bir yil ichida sezilarli ravishda 10.8% dan 6.6% gacha qisqargan. Ushbu ijobiy tendensiya bandlik sohasida ham kuzatilib, ishsizlik darajasi 5.0% gacha pasaygan. 54.1 trln so'mlik yalpi hududiy mahsulot hamda 435.2 mln dollarlik eksport hajmi hududning barqaror iqtisodiy o'sish trayektoriyasiga chiqqanidan dalolat beradi.Kambag'allikni kamaytirish va tengsizliklarni qisqartirishda davlat institutlarining samaradorligi hal qiluvchi omil hisoblanadi. Shu sababli O'zbekistonda so'nggi yillarda institutsional islohotlarga alohida e'tibor qaratildi.

"O'zbekiston – 2030" strategiyasi mamlakatning BRM maqsadlariga mos milliy rivojlanish modelini shakllantirishga qaratilgan. Strategiyada o'ta kambag'allikka barham berish, inson kapitalini rivojlantirish, raqamli boshqaruvni kengaytirish hamda davlat xizmatlarining ochiqligini ta'minlash ustuvor vazifalar sifatida belgilangan.

Shuningdek, "Temir daftar", "Ayollar daftari" va "Yoshlar daftari" kabi manzilli mexanizmlar aholining ehtiyojmand qatlamlarini aniqlash va ularga individual yordam ko'rsatish imkonini berdi. "Yagona ijtimoiy reyestr" tizimi esa ijtimoiy yordamlarni raqamlashtirish orqali shaffoflikni oshirishga xizmat qilmoqda.

¹⁷ Analysis of Poverty Levels <https://review.uz/en/post/analiz-urovnya-bednosti-i-doxodov-naseleniya-v-uzbekistane-po-itogam-2025-goda-infografika>

Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, 2025-yilda 2,7 million fuqaro zamonaviy ijtimoiy himoya tizimi bilan qamrab olingan.¹⁸ Bundan tashqari, "Kompaniya – kooperativ – dehqon xo'jaligi" tamoyili asosida 484 ta kooperativ tashkil etilib, 15,7 ming nafar kambag'al oila a'zolari ish bilan ta'minlangan.¹⁹

"Sayxunobod tajribasi" doirasida mahallalarda qiymati 18 trillion so'mlik 394 mingdan ortiq mikroloiyahalar amalga oshirilgan va buning natijasida 809 ming kishining bandligi ta'minlangan.²⁰

Davlat boshqaruvida shaffoflikni oshirish maqsadida "E-qaror" tizimi joriy qilindi. Mazkur tizim orqali mahalliy hokimiyat qarorlarini ommaga ochiq e'lon qilish mexanizmi yaratildi. Shu bilan birga, 2026-yildan "Raqamli komplayens" tizimini to'liq joriy etish rejalashtirilmoqda. Mazkur tizim davlat xaridlarida korrupsiya xavfini avtomatik aniqlash va manfaatlar to'qnashuvini cheklashga qaratilgan.

Sud-huquq tizimida ham keng qamrovli raqamlashtirish ishlari olib borilmoqda. Prezidentning PF-140-sonli farmoniga muvofiq "Raqamli sud" konsepsiyasi joriy qilinmoqda. Mazkur tizim orqali sud hujjatlarini avtomatik shakllantirish, elektron murojaatlar hamda sun'iy intellekt yordamida sud jarayonlarini tahlil qilish imkoniyati yaratilmoqda.

Shuningdek, 2026-yilda qabul qilingan "Yuridik yordam to'g'risida"gi O'RQ-1135-sonli qonun kam ta'minlangan fuqarolar uchun Konstitutsiyaviy sudga murojaat qilishda bepul yuridik yordam olish imkoniyatini kengaytirdi. Bu huquqiy tenglikni ta'minlashda muhim institutsional qadam hisoblanadi.

Muammolar va mavjud cheklovlar

So'nggi yillarda erishilgan ijobiy natijalarga qaramay, O'zbekistonda kambag'allik va tengsizlikni kamaytirish jarayonida bir qator tizimli muammolar saqlanib qolmoqda.

Birinchidan, hududlar o'rtasidagi iqtisodiy tafovutlar hali ham yuqori darajada. Ayrim chekka hududlarda ish o'rinlari yetishmasligi va infratuzilmaning rivojlanmaganligi kambag'allik xavfini oshirmoqda.

Ikkinchidan, inflyatsiya va oziq-ovqat narxlarining oshishi kam daromadli qatlamning real daromadlariga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Oziq-ovqat mahsulotlari narxining ish haqi va pensiyalarga nisbatan tezroq o'sishi aholining xarid qobiliyatini pasaytirishi mumkin.

Uchinchidan, iqlim o'zgarishi qishloq xo'jaligiga bog'liq hududlar uchun jiddiy xavf tug'dirmoqda. Suv tanqisligi va qurg'oqchilik qishloq aholisi daromadlarining kamayishiga olib kelishi mumkin.

To'rtinchidan, huquqiy institutlarning ochiqligi va shaffofligi masalasi hali ham dolzarb bo'lib qolmoqda. World Justice Project'ning 2025-yilgi "Rule of Law Index" hisobotiga ko'ra, O'zbekiston 143 davlat orasida 81-o'rinni egallagan.

2-Jadval : Rule of Law Index 2025 ko'rsatkichlar dinamikasi

¹⁸ <https://www.worldbank.org/ext/en/country/uzbekistan>

¹⁹ <https://www.uzbekistonmet.uz/oz/lists/view/7943>

²⁰ «O'zbekiston MET» AJ Axborot xizmati

<https://www.uzbekistonmet.uz/oz/lists/view/7943>

Indikator (Rule of Law Index 2025)	O'рни (143 tadan)	Ball
Tartib va xavfsizlik	17	0.90
Korrupsiyaning mavjud emasligi	67	0.47
Hukumat vakolatlarining cheklanganligi	114	0.37
Ochiq hukumat	120	0.37
Asosiy huquqlar himoyasi	110	0.43

Manba: World Justice Project (2025) : WJP Rule of Law Index | Uzbekistan Insights

2-Jadval tahlili O'zbekistonning huquqiy institutlarida nomutanosib rivojlanish mavjudligini ko'rsatadi. Mamlakatimiz 'Tartib va xavfsizlik' bo'yicha dunyo yetakchilari qatoridan joy olib (0.90 ball), fuqarolarning jismoniy xavfsizligini ta'minlashda yuqori natijaga erishgan. Biroq, 'Ochiq hukumat' (120-o'rin) va 'Hukumat vakolatlarining cheklanganligi' (114-o'rin) ko'rsatkichlarining 1 ga nisbatan pastligi (0.37 ball) davlat boshqaruvida 'tiyib turish va muvozanat' (checks and balances) tizimi hali yetarli darajada shakllanmaganidan dalolat beradi.

Mazkur institutsional bo'shliq iqtisodiy islohotlarning shaffofligiga to'siq bo'lishi, korrupsiyaga qarshi kurash samaradorligini pasaytirishi va uzoq muddatli barqaror iqtisodiy o'sish uchun xavf tug'dirishi mumkin.

Beshinchidan, sifatli bandlik masalasi dolzarbligicha qolmoqda. Fuqarolarni oddiy ish bilan emas, balki yuqori maoshli va zamonaviy kasblar bilan ta'minlash uzoq muddatli barqarorlik uchun muhim ahamiyatga ega.

Oltinchidan, daromadlar tengsizligini yanada qisqartirish zarurati ortib bormoqda.

Garchi O'zbekistonda Gini koeffitsiyenti 0.35 dan 0.33 ga tushgan bo'lsa-da, boy va kambag'al qatlam o'rtasidagi tafovut (5.7 baravar) saqlanib qolmoqda.

O'zbekistonda kambag'allikni qisqartirish va Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish yo'lida amalga oshirilayotgan institutsional islohotlarni tahlil qilgan holda, xalqaro tajribaga tayanib quyidagi takliflarni ilgari suraman:

1. Hududiy tengsizlikni kamaytirish bo'yicha: Janubiy Koreyaning qishloqlarni rivojlantirish bo'yicha "Saemaul Undong" modeli tajribasidan foydalanib, har bir tumanning o'ziga xos imkoniyatlariga asoslangan "aqli ixtisoslashuv"²¹ tamoyilini joriy etish lozim.

2. Aholi xarid qobiliyatini himoya qilish bo'yicha: Lotin Amerikasi davlatlarining shartli pul o'tkazmalari tizimi tajribasini inobatga olib, inflyatsiya sharoitida ijtimoiy nafaqalarni oziq-ovqat narxlar indeksiga qarab avtomatik indeksatsiya qilish²² tizimiga o'tish maqsadga muvofiqdir.

3. Shuningdek, inflyatsiya bosimini pasaytirish uchun Niderlandiya tajribasidan kelib chiqib, oziq-ovqat mahsulotlari isrofini kamaytiruvchi zamonaviy agrologistik

²¹ Aqli ixtisoslashuv (Smart Specialization) – hududning o'ziga xos resurslari va kuchli tomonlarini aniqlab, faqat o'sha yo'nalishdagi innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash strategiyasi.

²² Avtomatik indeksatsiya – inflyatsiya tufayli narxlar oshganda, aholining xarid qobiliyatini saqlab qolish uchun ish haqi, pensiya va nafaqalar miqdorini narxlar indeksiga (masalan, oziq-ovqat savatiga) mutanosib ravishda avtomatik ravishda oshirib borish mexanizmi.

markazlar²³ tarmog'ini kengaytirish va importni diversifikatsiya qilish²⁴ orqali bozorda barqaror raqobat muhitini yaratish lozim."

4. Ekologik xavflarni yumshatish bo'yicha: Isroilning suv tejovchi texnologiyalari va agrosug'urta tizimidan kelib chiqib, qishloq xo'jaligida suv tanqisligiga qarshi "iqlimiy sug'urta"²⁵ mexanizmini joriy etish zarur deb hisoblayman.

5. Huquqiy institutlar ochiqlikini oshirish bo'yicha: Estoniyaning raqamli hukumat modeli²⁶ tajribasiga tayangan holda, davlat budjeti taqsimoti ustidan "raqamli jamoatchilik nazorati"²⁷ tizimini yanada kuchaytirish lozim.

6. Sifatli bandlikni ta'minlash bo'yicha: Germaniya va Avstriya kabi davlatlarda o'zini oqlagan "dual ta'lim"²⁸ modelini kengaytirish, bitiruvchilarning mehnat bozoriga to'liq moslashuviga xizmat qiladi.

7. Daromadlar tengligi bo'yicha dunyoda yetakchi bo'lgan Norvegiyada Gini koeffitsiyenti taxminan 0.27 atrofida shakllangan.²⁹ Jamiyatda ijtimoiy adolatni mustahkamlash uchun Norvegiya tajribasidagi kabi progresiv soliq tizimini³⁰ bosqichma-bosqich joriy etish masalasini ko'rib chiqish lozim.

XULOSA

O'zbekiston so'nggi yillarda Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish yo'lida sezilarli natijalarga erishmoqda. Xususan, kambag'allik darajasining 5,8 foizgacha qisqarishi, daromadlar tengsizligining kamayishi hamda ijtimoiy himoya tizimining kengayishi mamlakatda olib borilayotgan institutsional islohotlarning samaradorligini ko'rsatadi.

Biroq ushbu natijalarni uzoq muddat davomida saqlab qolish uchun faqat iqtisodiy o'sish yetarli emas. Buning uchun ochiq va shaffof davlat boshqaruvi, kuchli huquqiy institutlar, inson kapitaliga investitsiya va iqlim xavflariga moslashgan ijtimoiy siyosatni yanada rivojlantirish zarur.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda kambag'allik va tengsizlikni kamaytirish masalasi faqat iqtisodiy ko'rsatkichlar bilan emas, balki davlat institutlari sifati, huquqiy adolat va jamiyatdagi teng imkoniyatlar bilan chambarchas bog'liqdir. Shu sababli BRM siyosatining muvaffaqiyati institutsional islohotlarning izchil davom ettirilishiga bevosita bog'liq hisoblanadi.

²³ Agrologistika markaz – qishloq xo'jaligi mahsulotlarini daladan iste'molchiga yetkazib berish zanjiridagi barcha jarayonlarni (sartirovka qilish, qadoqlash, zamonaviy sovitkichli omborxonalarda saqlash, tashish va sotish) o'z ichiga olgan yuqori texnologiyali majmuadir. Uning asosiy vazifasi mahsulot sifatini saqlash va isrofni kamaytirish orqali bozorda narxlar barqarorligini ta'minlashdan iborat.

²⁴ Import diversifikatsiyasi – ichki bozorda narxlar barqarorligini ta'minlash maqsadida oziq-ovqat mahsulotlarini faqat bitta davlatdan emas, balki bir nechta muqobil tashqi bozorlardan keltirish strategiyasi.

²⁵ Iqlimiy sug'urta – tabiiy ofatlar yoki kutilmagan iqlimiy o'zgarishlar (qurg'oqchilik, sovuq urishi) natijasida ko'rilgan zararni qoplashga qaratilgan moliyaviy himoya tizimi.

²⁶ <https://e-estonia.com/>

²⁷ Raqamli jamoatchilik nazorati – fuqarolarning axborot texnologiyalari yordamida davlat organlari faoliyatini, ayniqsa budjet mablag'larining sarflanishini onlayn kuzatish va baholash jarayoni

²⁸ Dual ta'lim – talaba haftaning bir qismida ta'lim muassasasida nazariy bilim olib, qolgan kunlarida bevosita ishlab chiqarish korxonasida amaliy mehnat qiladigan o'qitish tizimi.

²⁹ Norvegiya koeffitsiyenti – Norvegiya daromadlar taqsimoti eng adolatli davlatlardan biri bo'lib, OECD ma'lumotlariga ko'ra uning Gini koeffitsiyenti dunyodagi eng past (ya'ni eng yaxshi) ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. <https://ourworldindata.org/grapher/economic-inequality-gini-index?mapSelect=~NOR>

³⁰ Progresiv soliq tizimi – jismoniy shaxslarning daromadi oshgan sari soliq stavkasining ham oshib borishini nazarda tutuvchi tizim (ya'ni ko'p topgan ko'proq soliq to'laydi)

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sustainable Development Report 2025. Sustainable Development Solutions Network (SDSN). <https://gov.uz/en/imv/news/view/63748>
2. Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi (CERR ,2025) <https://dunyo.info/en/ekonomika/ceir-predstavil-analiz-urovnya-bednosti-i-dohodov-naseleniya-v-uzbekistane> https://t.me/Rasmiy_xabarlar_Official/55603
3. Analysis of Poverty Levels and Household Incomes in Uzbekistan in 2025 <https://review.uz/en/post/analiz-urovnya-bednosti-i-doxodov-naseleniya-v-uzbekistane-po-itogam-2025-goda-infografika>
4. World Bank Uzbekistan Data <https://www.worldbank.org/ext/en/country/uzbekistan>
5. O'zbekistonda 2025-yil yakunlari bo'yicha kambag'allik darajasi va aholi daromadlari tahlili <https://www.uzbekistonmet.uz/oz/lists/view/7943>
6. «O'zbekiston MET» AJ Axborot xizmati <https://www.uzbekistonmet.uz/oz/lists/view/7943>
7. World Justice Project (2025) : WJP Rule of Law Index | Uzbekistan Insights
8. Income inequality: Gini coefficient
World Bank, <https://ourworldindata.org/grapher/economic-inequality-gini-index?mapSelect=~NOR>